



## QO'TIR VA HUSNBUZAR KANALAR LARNING AYRIM BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SANITARIYA EPIDEMIOLOGIK AHAMIYATI

*<sup>1</sup>Xakimov N.X., <sup>1</sup>Xamidova A.B., <sup>1</sup>Turopov X.  
<sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarkand davlat universiteti, 140104,  
Samarkand, O'zbekiston*

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada Samarqand shahar hamda viloyat tumanlari kesimida qo'tir va husnbuzar kanalarning bioekologik xususiyalari va epidemiologik ahamiyati to'g'risida ma'lumolar keltirilgan. Ikki yillik ma'lumotlar asosida qo'tir kanasi hamda husnbuzar kanalari shahar va viloyat tumanlarida yildan yilga ushbu kasallik bilan kasallangan bemorlar sonining ortgani ma'lum bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** lupa, Jenner, leica galen III, biolam,

**Abstract.** This article provides information on the bioecological characteristics and epidemiological significance of scabies and scabies mites in Samarkand city and regional districts. Based on two-year data, it was found that the number of patients infected with this disease has increased from year to year in the city and regional districts of the city and the region.

**Keywords:** magnifying glass, Jenner, leica galen III, biolam,

### Kirish

4 million 77 ming kishi istiqomat qiladigan Samarqand viloyati 14 ta tuman, 11 ta shahar, 12 ta shaharchani o'z ichiqa oladi. Aholi o'rtaida keying yillarda qo'tir, ayniqsa husnbuzar kanalar keltirib chiqaradigan kasalliklar oqibatida kasallanishlar soni orib bormoqda. Ushbu kasalliklar qadimdan ma'lum bo'lib, birinchi va ikkinchi jahon urushlarida qo'tir kasalligining juda yuqori ko'rsatgichga chiqanligini ko'rish mumkin. Jahon soqliqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga binoan 1948-yilda yer yuzi aholisining 65% I ko'tir va bitlash kasalliklar bilan kasallangan. Masalan: ikkinchi jahon urushining oxirgi yillarida Italiyada 15%, Akvila degan qishloqda esa deyarli 85% aholi kutir kasalligiga mubtalo bo'lган. Turkiyaning Anqara shahrida 1944 yilda aholining 22% i, XX asrning nihoyasi ya'ni 1997 yilda Rossiya Federatsiyasida 100000 aholiga kasallanish 217.6 ga, 2001 yili esa 157.0ga teng bo'lган. Xuddi shu tariqa qo'tir kasalligi boshqa qo'shni Respublikalarda ham keskin ko'paygan. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisining taxminan 130 million kishisi qo'tir kasalligi bilan, 77 million kishisi esa demodex kasalligi bilan kasallangan.

Demodikoz kasalligining klinik xillarini tasniflagan (klassifikatsiyalagan) daslabki mualliflardan biri vatandoshimiz L.X. Akbulatova hisoblanadi (1964). U birinchi bo'lib demodikozni kinik manzaralariga qarab eritenatoz, skvamoz, papulyoz yoki papulavezikulyar, pustulyoz, birlashgan (kambinatsiyalashgan) va kam belgili kabi olti xilga ajratgan. Hozirda bu tasnif asosida dunyoning minglab dermatologlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.


**Material va metodlar.** Tadqiqot uchun 2021-yildan 2023-yilning may oyigacha Samarqand shahar va viloyat tumanlari kesimida ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotdan to'plangan asosiy maqsad qo'tir va husnbuzar kanalarning biekologiyasi, sanitariya epidemoligiysi hamda profilaktika chora tadbirlarini o'rganish va tashkel etish



bo'lganligi uchun Samarqand hudidagi bemorlarda kanalar orqali yuqadigan va kasallananadigan kasalliklar o'rganildi. Tadqiqot uchun olingan bo'g'imoyoqlilar (Arthropoda) sinfiga mansub bo'lган vakillari quyidagilar: qo'tir kanasi (*Sarcoptes scabiei*), hamda demadekozning ikki turi demodex folliculorum longus va demodex folliculorum brevis. Har bir kanalarni o'rganish uchun bemorlardan analiz olinib, ulardan mikroskop orqali ko'rildigan preparatlar tayyorlandi. Olingan preparatlar tez fursatda o'rganilib bemorlarga kerakli tashhiz qo'yildi.

Bemorlarda qo'tir va husnbuzar kanalari uchun olingan analizlar *professor E.X.Eshboyev uslubidan* foydaalanildi. Ushbu uslub shundan iboratki qo'tir yo'lining pufakchali uchiga lupa orqali qarab turib, Jenner yoki nayzasimon igna yordamida pufakcha teshiladi va shu igna bilan shu yerdan hamda qo'tir yo'llari bilan surtma materiali olinadi. Pufakchani iloji boricha asosi bilan olishga harakat qilish kerak. Ba'zan kana igna uchida kichkina nuqta bo'lib ko'rindi. Mikroskopda tekshirish uchun material yarim tomchi fizologik eritma tomizgan buyum oynasiga qo'yiladi va yopqich oyna bilan yopiladi. U odatda oldiniga 8x, keyin esa 20<sup>x</sup> li ob'yektiv tekshiriladi. Aksariyat holllarda kana hali o'magan bo'ladi. Demodex kanalari diagnostikasidagi ushbu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun biz o'zimizning yangi uslubimizni taklif qilamiz. Professor E.X.Eshboyev bu uslub juda oddiy bo'lib mushkulliklar va qiyinchiliklarni tug'dirmaydi, aksincha deagnostikani yengillashtiradi. Buning uchun preparat ustiga laboratoriyyadagi har kuni ishlatiladigan emmirsion moydan 1-2 tomchi tomiziladi va uning ustiga yopqich oyna yopiladi. So'ngra preparat mikroskopda "Biolam" (okulyar- 7x, ab'yektiv-8x) "leica galen III" (kulyar- 10x, ob'yektiv – 10x) ko'rish uchun tayyor xolda keladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot uchun olingan analizlar, preparatlar va bemorlarning umumiyligi soni to'g'risida bir qancha natijalar to'landi va tahlil qilindi. Olingan natijalar Samarqand viloyat tumanlari kesimida qo'tir kanasi kasalligiga chalingan bemorlarning 2022-yilda sonini quyidagi rasmida ko'rish mumkin.



**1-rasm Qo'tir kanasi kasalligining Samarqand viloyat tumanlari kesimida tarqalishi (2021-2023)**



Samarqand viloyati tumanlari kesimida 2021-yildan 2023-yilning may oyigacha bo'lgan 9077 ta qo'tir kanasi kasalligiga chalingan bemorlarning orasida Ishtixon tumanida eng yuqori darajani ko'rish 14%ni eng past ko'rsatgch esa Narpay tumaniga to'g'ri keldi. Qolgan tumanlarda Kattaqo'rg'on tuman 1%, Bulung'ur tuman 6 %, Jomboy tumanı 10%, Nurobod tumanı 2%, Oqdaryo tumanı 12%, Payariq tumanı 3%, Pastdarg'om tumanı 10%, Paxtachi tumanı 6%, Samarqand shahar 10%, Tayloq tumanı 9%, Urgut tumanı 8%, Qo'shrabot tumanı 2% va Kattaqo'rg'on shaharda esa 2% ni tashkel qildi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda qo'tir kanasi bilan kasallangan bemorlar soni Ishtixon va Oqdaryo tumanlarida ko'p tarqalayotgani aniqlandi. Bu hududlarni o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki ushbu tumanlarda sanitariya-gigeyina qoidalari qolgan tumanlarga nisbatan pastligi aniqlandi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Eshboyev E.X. , Eshboyev S. X. "Teri tanosil kasalliklarini aniqlashning laboratoriya diagnostikasi" Toshkent "Turon-Iqbol" 2014-yil
2. Дерматовенерология: национальное руководство под ред. профессоров Ю.К. Скрипкина, Ю.С. Бутова, О.Л. Иванова. - М.: ГОЭТАР.- 2011.- С. 414–442.
3. Рязанцев И.В. Совершенствование комплекса лечебно-профилактических мероприятий при чесотке в ВС РФ: специальность: 14.00.11 «Кожные и венерические болезни»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук Москва.- 2004.
4. Смирнова Т.С. и др. Особенности заболеваемости чесоткой на современном этапе. Дерматология в России.- 2018.- №2. - С.47.
5. A.Ya.Alatgauzen "Laboratoriya klinik tekshirishlar" O'zbekiston SSSR Davlat Meditsina nashriyoti. Toshkent – 1964.

